| “Farmatsevtika va biotexnologiya” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| 1 | Tirozin kinaza ingibitorlariga asoslangan selektiv ta’sirga ega molekulalarning<br>sintezi, ularning saratonga qarshi faolligini baholash hamda substansiya va qattiq dori shakli texnologiyasini ishlab chiqish.<br><br> | **Tadqiqotning shakli:** Amaliy<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>– Suvda yaxshi eruvchan va selektiv ta’sir qiluvchi yangi TKI hosilalari sintez qilinadi;<br>– PLK1, EGFR, VEGFR, KIT va boshqa kinozalarga qarshi molekulyar doking va molekulyar dinamika simulyatsiyalari bajariladi;<br>– Sintez qilingan TKI hosilalarini ko‘krak bezi sartoni (MCF-7) nisbatan *in vitro* sitotoksik faolligi baholanadi;<br>– Sintez qilingan TKI hosilalarini jigar saratoni (HepG2) nisbatan *in vitro* sitotoksik faolligi baholanadi;<br>– Sintez qilingan TKI hosilalarini leykemiya (K562) ga nisbatan *in vitro* sitotoksik faolligi baholanadi;<br>– Ma’lum bo‘lgan kimyoterapiya preparatlari (masalan, doksorubitsin, paklitaksel) bilan sinergik ta’siri o‘rganiladi;<br>– In vitro test orqali hujayra sikli va apoptozga ta’siri o‘rganiladi (Western blot, RT-qPCR, ELISA);<br>– 3D sferoid modellarda samaradorlik aniqlanadi;<br>– Yuqori terapevtik samaraga ega TKI hosilasi tanlanadi va uning olish texnologiyasi ishlab chiqiladi;<br>TKI hosilasining klinik oldi sinovlari bo‘yicha xavfsizlik (toksikologik) ko‘rsatkichlari, farmakologik aktivlik ko‘rsatkichlari in vivo usullarida GLP – (zarur laboratoriya amaliyoti) sertfikatli laboratoriyada tadqiq etiladi;<br>Olingan substansiya asosida qattiq dori shakli texnologiyasi ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Olingan natijalar Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida **Farmatsevtika tarmog‘ini** |

| | | |
|---|---|---|
| | | **rivojlantirish agentligi**ning xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi.<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi** qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |